

## MAVZU: XORAZM VILOYATI ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLOVCHI MANBALAR VA HAVONI MUHOFAZA QILISH

**Babajonova Sanobar Yuldashboyevna**

**Urganch Davlat Universiteti**

**Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi**

**kafedrasi mudiri, dotsent**

**Abdullayeva Maftuna Bahodir qizi**

**Urganch Davlat universiteti, talaba.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada atmosfera havosini ifloslovchi manbalar haqida shuningdek, atmosfera havosini ifloslanishini oqibatlarini va uni oldini olish chora tadbirlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar.** Tabiiy ifloslanish, sun'iy ifloslanish, atmosfera, ifloslanish, antropogen, transchegara.

**Annotation.** This article provides information about sources of atmospheric air pollution as well as the consequences of atmospheric air pollution and measures to prevent it.

**Keywords.** Natural pollution, artificial pollution, atmosphere, pollution, anthropogenic, transboundary.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об источниках загрязнения атмосферного воздуха, а также о последствиях загрязнения атмосферного воздуха и мерах по его предупреждению.

**Ключевые слова.** Природное загрязнение, искусственное загрязнение, атмосферное, загрязнение, антропогенное, трансграничное.

### **Kirish.**

Keyingi yillarda ekologik muammolarni hal qilish uchun jamiyatning barcha a'zolari atrof muhitni tushinishlari, unga amal qilish qonunlari va unda o'z o'rni to'g'risidagi yaxlit tasavvurni shakllantirish zarurati muammosini ko'proq anglatmoqda. O'zbekistonning yirik shaharlar va sanoat markazlarida atmosfera havosining ifloslanishi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Keyingi 30 yildan boshlab atmosfera havosining ifloslanish darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Atmosfera havosini sanoat chiqindilari bilan ifloslanishining kamayishiga qaramay, ba'zi shahar va tumanlarda uning sifati ko'chma manbalar chiqarayotgan

ifloslantiruvchi moddalarning ortishi hisobiga yaxshilanmaydi. Atmosfera havosining keng masofalarda transchegaraviy ifloslanishi, ozon qatlaminig yemirilishi, bug‘li gazlar chiqarilishi natijasida haroratning global isishi kabi dolzarb ekologik muammolarga katta e‘tibor qaratilmoqda. 1999 yildan sanoat, energetik va ko‘chma manbalardan chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy hajmi qisqaradi.

Uchinchi ming yillikning boshlanishi muhim ikki tamoyil bilan karakterlanadi. Birinchidan, hozirgi tamaddun global ekologik muammolar ya‘ni iqlim o‘zgarishi, ozon qatlaminig yemirilishi, ichimlik suvining yetishmasligi, bioxilma-xillikning qisqarishi, chiqindilarni zararsizlantirish kabilar bilan to‘qnash keldi. Ikkinchidan, dunyo keskin sur‘atlarda o‘zgarib bormoqda ya‘ni, kechagi mezonlar bilan ertangi istiqbolni belgilash u yoqda tursin, hatto bugungi hodisalarni ham baholab bo‘lmay qoldi. O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha Harakatlar milliy dasturida asosiy vazifa- ustivor ekologik muammolarni aniqlash, ularni hal etish vositalarini tanlash, tegishli tashkiliy va maxsus o‘zgarishlar amalga oshirilishini nazarda tutuvchi, mamlakatning barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tishga shart-sharoitlar yaratish strategiyasini shakllantirish deb belgilab qo‘yilgan.

### **Asosiy qism.**

Markaziy Osiyodagi iqlim xususiyatini belgilovchi atmosfera sirkulyatsiyasi muayyan darajada ushbu hududdagi tabiiy-geografik sharoitga (cho‘llar, dengiz sathidan 200–250 m yuqoridagi chala cho‘llar, 3500–3600 m balandlikdagi tog‘ tizmalari) bog‘liqdir. Turon pasttekisligining katta qismini sovuqdan himoyasiz tekis hududlar egallab turadi, bu iqlimga keskin-kontinental tus beradi. Ikkinchi tomondan olganda, g‘arbiy, shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda Atlantika mo‘tadil kengliklaridan davriy tarzda sovuq havo keladi, bu ham atmosferaning miqdoriy ko‘rsatkichlari va xususiyatlari shakllanishiga ta‘sir qiladi.

Atmosfera havosining ifloslanishi antropogen omillar ta‘sirida va tabiiy manbalardan zararli moddalar chiqarilishidan, shuningdek, hududning tabiiy-geografik va iqlim sharoitlaridan kelib chiqadi. O‘zbekistonning kattagina qismi Turon pasttekisligiga tegishli tekis hududlardir, sovuq havo oqimiga to‘siq yo‘qligi uchun keskin-kontinental iqlimga mansub. Bu yerda g‘arbiy, shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda Atlantika mo‘tadil kengliklaridan davriy ravishda sovuq havo oqimi keladi, bu ham atmosferaning miqdoriy ko‘rsatkichlari va xususiyatlari shakllanishiga ta‘sir qiladi. Tekis hududdagi asosiy tabiiy ifloslantiruvchi,



aerozollarni atmosferaga chiqaruvchi manba Qoraqum va Qizilqum cho‘llarining chang-to‘zonli qismlaridir. Shuningdek, dengizning qurigan qismidan va Orolbo‘yi zonasidan shamol yirik hajmda sho‘rlangan changni g‘arbdan sharqqa uchirib boradi.

Atmosferaga antropogen taʼsir, asosan, ikki jarayon natijasida ro‘y beradi: uning tarkibidagi gazlarni ajratib olish va ishlatish hamda sanoat, transport, kommunal manbalardan atmosfera tabiiy tarkibiga mos kelmaydigan moddalarni havoga tarqatish. Sanoatda yot moddani havoga chiqarmaydigan texnologiyalar yo‘qligi sababli atmosferaga katta miqdorda ifloslantiruvchi moddalar (to‘liq yonmagan, xomashyoni qayta ishlangandagi va materiallarga ishlov berilgandagi moddalar) chiqib ketadi. Texnologik siklda atmosfera havosi ishlab chiqaruvchi komponent sifatida qo‘llaniladi. Uni oksidlovchi modda, oksidator, sovitkich, issiqlik tashuvchi, suyultirgich sifatida aspiratsion va ventilyatsion tizimlarda ishlatiladi. Atmosferani ifloslantiruvchi asosiy manbalarga sanoat korxonalarini va avtomobillar misoldir. Katta shaharlarda asosiy transport yo‘llarida gazning ifloslanishi muammosi juda keskin. Shuning uchun ham dunyoning ko‘plab yirik shaharlarida, jumladan, mamlakatimizda ham avtomobil chiqindi gazlarining zaharliligini ekologik nazorat qilish yo‘lga qo‘yilgan.

Atmosferaning ifloslanishi deganda havoga begona birikmalarning qo‘shilishi natijasiga uning fizik va kimyoviy xususiyatlarining o‘zgarishi tushuniladi, atmosfera tabiiy va suniy yo‘llar bilan ifloslanadi. Shuningdek, atmosfera tarkibidagi gazlar balansining o‘zgarishi ham atmosferaning ifloslanishiga olib keladi.

Atmosferada gaz balansining buzilishiga nafaqat u yoki bu gazdan foydalanish, balkim unga atmosferaning turli xildagi zaharli va zararli moddalar bilan ifloslanishi xam taʼsiri qiladi. Atmosferaning ifloslanishi havoga nixoyatda ko‘p miqdorda chiqayotgan chang–tuzon, tutun, mikroblar, uglerod oksidi, vodorod sulfidi, uglevodorodlar, organik moddalar, sulfidlar, nitratlar, qo‘rg‘oshin, temir, ftor birikmalari, radioaktiv moddalar va pestitsidlar bilan bog‘liq. Atmosferani ifloslovchi manbalarni ikkiga bo‘lish mumkin: Tabiiy (biogen) manbalar va suniy (antropogen) manbalar.

Tabiiy manbalarga vulkonlar otilishidan havoga ko‘tariladigan kul va gazlar, yerdan shamol yordamida ko‘tariladigan chang-tuzonlar, urmonlarda chiqadigan yonginlar tutuni, dengiz va okeanlardan suv bugi bilan kutariladigan turli xil tuzlar





xamda fazoviy changlar kiradi. Ma`lumotlarga kura Yer yuzida mavjud bo`lgan 500 ta doimiy harakatdagi vulkonlardan yilida urtacha 75mln.tonna kul va chang kutariladi. Keyingi yillarda birigina Orol dengizi xavzasida paydo bo`lgan 4 mln. ga tuzli qum saxrolaridan havoga yilida 15-75 mln.tonnagacha tuz va qum ko`tarilmoqda.

Sun`iy ya`ni antropogen manbalarga inson faoliyati bilan bog`liq bo`lgan barcha ifloslovchi manbalar kiradi. Bu manbalarning salmoq jixatidan eng yiriklari sanoat va avtotransportdir. Ulardan chiqadigan chiqindilarning havoga qo`shilishiga texnogen ifloslanish deyiladi.

Atmosfera havosining ifloslanishi atrof muxitga, jumladan iqlimga, suvga, tuproqqa, o`simliklar dunyosiga, hayvon va odamlar sog`ligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Atmosferaning ifloslanishi natijasida yirik shaharlar va sanoat markazlari mikroiklimida yaqqol o`zgarish seziladi. Bu hududlarda havodagi aerezollar quyosh nurining ko`p qismini yutib olib, uni yerga kam o`tkazadi. Yadro kontsentratsiyasining oshishi natijasida bunday joylarda bulutli va tumanli kunlar ko`payib, kuyoshli ochik kunlar soni kamayib bormokda. Masalan, Parijda keyingi 50 yil davomida bulutli kunlar soni kariyb 60 kunga ko`paydi. Atmosferaning tiniklik koeffitsienti bu yerda atrofdagi boshqa shaharlardan kura 3,5% kamdir..

Inson faoliyati salbiy ta`sirining yana bir maxsuli ishlab chqarilayotgan issiklik energiyasining ko`payishidir. Buning oqibatidagi sanoat markazlarida va shaharlarda iqlim harorati nisbatan yuqori. Masalan, Moskvaning markazi bilan uning chekka rayonlaridagi havoning harorati urtasidagi fark 4,9 <sup>0</sup>S gacha bo`lishi kuzatilgan. Umuman olganda, shaharlarda harorat atrof xududlarga karaganda 2-2,5 <sup>0</sup>S yuqoridir.

Xulosa qilib aytganda, atmosfera havosining ifloslanishi va uni ifloslovchi manbalar, tabiiy va sun`iy ayniqsa antropogen omillarning salbiy ta`sirlarini bartaraf qiluvchi chora- tadbirlarni keng miqyosda amalga oshirish (davlat va mahalla darajasida), atmosfera havosini ifloslanishiga va zaharlanishiga yo`l qo`ymaslik tadbirlarini mavjud qonun va me`yoriy hujjatlar asosida keng miqyosda amalga oshirish lozim.

Atmosfera havosini ifloslanishi natijasida biologik muvozanatni buzilishi va uni oldini olish uchun undagi jonli va jonsiz qismlar orasidagi bog`lanishlarni tiklash, tabiat resurslaridan foydalanishni oqilona rejalashtirishni yo`lga qo`yish, asosan tugamaydigan tabiiy resurslardan foydalanishga ahamiyat berish zarur.



Atmosferaning gaz balansi va uni saqlash zarurati to'g'risidagi bilimlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratish va gaz balansi buzilishini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni ommalashtirish, hamda chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini va chiqindilarni xomashyo shaklida ishlatishni keng joriy qilish.

Atmosfera havosidagi ekologik muammolarni bartaraf qilish usullarini, atmosfera havosini ifloslanishini oldini olishga qaratilgan mavjud tadbirlarni takomillashtirish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi korxonalarini uchun atmosfera havosiga tashlanayotgan tashlamalarni normallashtirish va ifloslantiruvchi manbalar inventarizatsiyasini o'tkazish bo'yicha qo'llanma. 15.12.2005 y. № 105
2. O'zbekiston Respublikasi Avtomobil transport Vazirligining tabiatni muxofaza qilish bo'yicha tarmoqlangan metodik qo'llanmasi.
3. Abirqulov Q.N., Hojimatov A.N., Rajabov N.R. Atrof-muhitni muhofaza qilish (o'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2004. – 116 bet.
4. Sultanov P.S. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. T.: Musiqa, 2007- 235.b.
5. Qudratov O. Sanoat ekologiyasi. Toshkent, 2003.

---

# Research Science and Innovation House